

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
Ona yurti - oltin beshiging

# TONG Yulduzi

№37 (66370)  
2002 yil  
9 sentabr,  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan.

Salom quyoshli yurt farzandlari!  
Ushbu maktubimni juda olisdan, yer  
sharining boshqa bir tomoni -  
Amerikadan yo'llayapman.

Men Nyu-York shahridagi  
osmono'par binolardan birida  
yashayman.


chehrasidan nur yog'ilib turgan  
qiyofasi menga juda yoqdi. U  
kishining bizning avvalgi  
Prezidentimiz Bill Klinton bilan  
tushgan suratini ko'rib, menda bir  
ajoyib fikr tug'ildi: Yurtboshlari do'st

bilaman. Sizing tilingizni esa endi-  
endi o'rganyapman. «Assalomu-  
alaykum, aziz do'stlarim, non, ona»  
kabi so'zlardangina iborat bo'lgan  
o'zbek tilidagi lug'atimni boyitishga  
siz yordam berasiz, degan  
umiddaman. O'z

## AMERIKADAN BIR NIGOH

Oilada to'rt kishi - dadam, onam,  
akam va men yashaymiz. Akam  
Nikolay Universitetda o'qiydi.  
Yaqinda uyimizga qorachadan  
kelgan bir yigitni boshlab keldilar.  
Ko'rinishi juda jiddiy, og'ir-vazmin  
bu yigitning ismi Jahongir bo'lib,  
o'zi o'zbekistonlik ekan. Men  
Jahongir akadan serquyosh  
yurtingiz haqida gapirib berishlarini  
iltimos qildim. U esa safar  
xaltasidan bir dasta kitoblar, rasmi  
broshyuralar chiqarib, faxr va  
iftihor bilan O'zbekiston haqida  
so'zlay ketdi. Jahongir aka ingliz  
tilini mukammal bilarkan. Lekin  
uning rasmlari o'zlari haqida  
o'zlari hikoya qilardi, go'yo.  
Diyoringizning bir-biridan ajoyib  
ko'rkam shaharlari, qadimiy  
obidalari, tog'lari-yu yam-yashil  
mevazor bog'lari, xirmon-xirmon  
oq oltini, qiyosi yo'q tillosi, «qora  
oltin» deya ta'rif beriladigan nefti,  
qo'yingchi, hamma-hamma joylari  
meni juda hayratga soldi.  
Osmono'par teleminorangiz  
balandligi jihatdan dunyoda to'rtinchi  
o'rinda turishini ham Jahongir  
akamdan so'rab bilib oldim.  
Ayniqsa, yurtboshingizning

bo'lgan mamlakatlarning farzandlari  
ham do'stlashishlari lozim, shunday  
emasmi?! Maktubimni o'qib, men



bilan do'stlashish niyati tug'ilsa,  
albatta xat yozing. Unda o'zingiz,  
tengdoshlaringiz, ona yurtingiz haqida  
ko'proq ma'lumotlar yozing. Jahongir  
akamning aytishlaricha, sizlar chet  
tillarini ishtiyoq bilan o'rganar  
ekansizlar. Men fransuz, rus tillarini

navbatida men ham sizga iqlimi,  
tabiati, geografiyasi jihatdan  
siznikiga o'xshash bo'lgan o'z  
yurtim haqida yozib  
yuboraman...

Jahongir akam yaqindagina  
nishonlagan Mustaqillik  
bayramingiz haqida to'lqinlanib  
gapirib berdilar. Ularning  
hikoyalarini tinglab, xuddi  
bayram tantanalarida men ham  
ishtirok etgandek bo'ldim.  
Yurtingizga, baxtiyor  
bolaligingizga juda havasim keldi.  
1 Sentyabr kuni sizlarda yangi  
o'quv yili boshlanar, maktablarda  
«Mustaqillik darsi», «Tinchlik»  
darslari o'tilar ekan. Shu  
munosabat bilan barchangizni  
«Bilimlar kuni» bilan samimiy  
tabriklayman. O'qishlaringizda  
omadlar tilab, maktublaringizni  
kutib qolaman.

Sizlarga o'zinning eng yaxshi  
ko'rgan, qish oylarida tushgan  
suratimni esdalik uchun  
yuboryapman.

**Yekaterina MAKAREYEVICH,**  
**Amerika Qo'shma Shtatlari,**  
**Nyu-York shahridagi**

**104 - maktab litsey o'quvchisi.**

# IKKI AVLOD UCHRASHUVI



«Yurgan daryo, o'tirgan bo'yra» deganlari rost ekan. Gazeta yumushlari bilan band bo'lib, tadbirlarga ko'pam qatnashavermasdim. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamda «Nuroni» jamg'armasi Toshkent viloyati bo'limi tashabbusi bilan Toshkent viloyatining Qibray tumanida o'tkazilgan ikki avlod uchrashuvida qatnashib, bir olam taassurotlar bilan qaytdim. To'kin dasturxon bezatilgan davrning bir tarafida O'zbekiston Xalq artistlari Zikir Muhammadjonov, To'ti Yusupova, jangchi shoir Nazarmat ota, sevimli shoirimiz Normurod Narzullayev singari taniqli san'atkorlar, shoiru olimlar, keksa jurnalistlar, generallar, savdo xodimlari, musavvirlar, qo'yingchi, umrlari yosh avlod uchun namuna bo'ladigan nuroniy otaxonu onaxonlar o'tirishardi. Ularni sahnada, televideniya ekranlarida, ko'cha-kuyda ko'rish boshqa, hayotda yuzma-yuz uchrashib, dildan suhbatlashish boshqa ekan. Har birlari bir olam mo'jiza, hayot yo'llari yoshlarimiz uchun katta bir hayot maktabi ekan...

Davrning ikkinchi tarafidan esa Qibray tumani maktablarining o'quvchi-yoshlari, ularning yetakchilari joy olishgandi. To'g'risi, o'zimni qaysi avlod qatoriga qo'shishni bilolmay, biroz ikkilandim. Shunda xolis bir tomoshabin sifatida tadbirni kuzatishga ahd qildim. Tadbir Mustaqilligimiz bayrami arafasida bo'lgani uchun davrada bayramona kayfiyat kezib yurardi. Sevimli hofizlarimiz aka-uka Isroiljon va Ismoiljon Vahobovlarning diltortar qo'shiqlari hammani davraga chorladi. Keksas san'atkorlarimiz boshlab bergan raqsni tumandagi 14-maktab yetakchisi Mamlakat Muraxatovaning Gulnoza Odinayeva, Ma'mura Shoyusupova, Dildora Azimova kabi shogirdlari davom ettirishdi. Ayniqsa, rus millatiga mansub Natasha Yefanovaning o'zbekcha xiromi hammamizni lol qoldirdi. Normurod Narzullayev istiqlolni tarannum etuvchi she'rlaridan o'qidi, Zikir Muhammadjonov monolog

aytib berdi. Usmon Nosirning jiyan Nodira Rashidovaning mustabid tuzum haqidagi ayanchi hikoyalarini bolalar diqqat bilan tinglashdi. «O'g'lim Sardorbekka» nomli she'rlari xarbiy xizmatga chaqirilayotgan barcha o'g'lonlarga qarata yozilgandek edi. Navoiyshunos olim Aziz Qayumovni o'quvchilar savollarga «ko'mib tashlashdi».


Ularning «Navoiyni to'liq o'rganib, o'zlashtirib oldikmi?» degan savoliga, Aziz aka «Yo'q!» deya ishonch bilan javob berdilar. Zero, Alisher Navoiy:

«Mening yuzdan bir olim, xaykaltarosh, arxeolog asarimni o'qib, tushunganlar M. M. Gerasimov

ko'p yashasinlar. Tushunolmaganlar ham omon bo'lsinlar. Lekin yana bir toifa kishilar borki, asarlarimni tushunishmaydi-yu o'zimni maqtayverishadi», -deb yozgandilar. Nazarimda hozirgi kunda uchinchi toifa kishilar ko'payib ketgandek. Hazrat Navoiyni to'liq o'rganib, o'zlashtirib olish siz - yosh avlodning qo'lidadir,-dedilar.

Iqtidorli rassom Abdumalik Nabiyeving buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temur portretini yaratish haqidagi hikoyasini tinglab, juda ko'p narsalarni bilib oldik.

- Ikkinchi jahon urushi boshlanishi arafasida taniqli



## TO'G'RI O'SGAN CHINORIM

Qadimda allaqaysi podsholikda bir befarzand ayol yashagan ekan. U hovlisiga bir chinor daraxtini ekib, o'z farzandidek parvarishlay boshlabdi. Bor onalik mehrini unga bag'ishlabdi. Oradan yillar o'tib, ayol keksayib qolibdi. Navnihol esa tik qomatli azim ehinorga aylanibdi...

Bir kuni shu yurtning podshosi hashamatli saroy qurdirishni ihtiyor aylabdi va bu ishga mamlakatning eng mohir ustalari, naqqoshlarini jalb qilibdi. Ustalar saroyning qoq o'rtasida qad rostlaydigan naqshinkor ustunbop chinor topolmay, ancha sarson bo'lishibdi. Nihoyat haligi onaxonning hovlisidagi chinorni ko'rib, quvonib ketishibdi. Lekin kampir chinorni kesishlariga qarshilik qilibdi. Shunda podsho: «Tarozunging bir pallasiga chinorni, ikkinchi pallasiga oltin qo'yib tortinglar. O'sha oltinlarni kampirga berib, rozi qilinglar» deya farmoyish beribdi. «Mening ko'nglimga qaradimi, demak dili pok inson ekan» deya mushohada qilgan onaxon chinorni kesishlariga rozilik beribdi.

Qisqa fursatlarda saroy bitibdi. Chinorini sog'inib qolgan onaxon saroyga boribdi. Qarasa, chinori saroyning o'rtasida savlat to'kib turganmish. «Chinorim-bolajonim, to'g'ri o'sganing uchun saroyning chiroyiga ko'rk qo'shib turibsan. Egri o'sganingda allaqachon o'tin bo'lib, kimningdir qozonini qaynatgan bo'larding» debdi faxr va iftihor bilan onaxon.

boshchiligida Amir Temurning qabri ochilib, tobuti bilan birga olib kelindi, -deya so'z boshladi musavvir. -Uning bosh suyaklari asosida byusti ishlandi. O'shanda dilimda sohibqironning rang-tasvir portretini yaratish orzusi paydo bo'lgandi. Orada urush boshlanib qolib, ma'lumotlar yetishmagani sababli ishlarim chala qoldi. Qolaversa, sarkardaning portretini yaratish mumkin emasdi. Darsliklarda Amir Temur qonho'r, jallod deb yozilardi. Haqiqat bor bo'y-basti bilan namoyon bo'lgan Ibn arab Shoxning kitobini o'qib chiqdimu sohibqironning doimo mag'rur tutadigan baquvvat gavdasi, o'tkir ko'zlari, keng yelkalari, katta-katta mushtlari ko'z o'ngimda namoyon bo'ldi-qo'ydi. Nihoyat, 1993 yilda orzuim amalga oshdi - Amir Temurning portretini yaratdim». O'ndan ziyod rassomlarning 60 dan ortiq ishlari tavsiya qilingan prezidentimiz tashabbusi bilan o'tkazilgan tanlovda g'olib bo'ldim...

O'quvchilarni sevimli san'atkorimiz To'ti Yusupovanning kelajak rejalari, orzu va umidlari ham qiziqirdi. Ko'zlariga yosh olib o'qib bergan «Ona monologi» hammamizni yig'latdi. Qalblarimizda oramizda oz bo'lsa-da uchrab turadigan ota-onasini o'z uyiga sig'dirmay, qariyalar uylariga olib borib qo'yadigan kimsalarga nisbatan nafrat tuyg'ularini uyg'otdi.

Uzoq yillar davomida savdo vaziri vazifasida ishlab kelgan ikki otaxonga o'quvchilar, «Avvalgi yoshlar

## «SENGA QOYIL QOLAMAN»

Keksa bir savdogar o'z shogirdiga nasihat qilibdi: «Agarda sen o'rmonda yirtqich sherga ro'baro' kelib qolib, uni yengib chiqsang, senga qoyil qolmayman. Nafs balosini daf qilolsang, senga qoyil qolaman».

q a n d a y bo'lishgan?» deya savol berishdi. «Avvalgi yoshlarimiz insofli-diyonatli, iymonli-e'tiqodli, sabr-bardoshli bo'lishgandirki, hozirgi faraxbaxsh kunlarimizga yetib keldik», deb javob berishdi ular.

Yoshlarimizni ham shunday komil insonlar bo'lishga chaqirib, to'g'rilik, halollik haqida rivoyatlar so'zlab berishdi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy xarakati qoshidagi Shukrullo rahbarligidagi «Kulgu teatri» a'zolarining ichakuzdi hangomalari davraga ko'tarinkilik bag'ishladi. Tadbir so'ngida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi raisi Botir Ubaydullayev yig'ilganlarni bayram bilan muborakbod etib, kekxa avlod vakillariga esdalik sovg'alari ulashdi. Bunday tadbirlarning yosh avlod tarbiyasidagi muxim ahamiyati xususida gapirdi. Ikki avlod vakillari uchrashuvi suratlarda muhrlandi. Kekxa avlod vakillarining chehralaridan bugungi faraxbaxsh kunlarga shukronalik alomatlarini, bolajonlarning yuz-ko'zlaridan esa quvonch va havas, mana shu otaxonu onaxonlardek bo'lishga intilish sezilib turardi.

Feruza JALILOVA.



Prezident asarlarini o'rganamiz

## MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi.)

Boshi o'tgan sonlarda,)

Bu tahdidlar, eng avvalo, oddiy insonlar qalbi va ongini zabt etishga, ularni o'z milliy qadriyatlaridan, umumbashariy sivilizatsiya yutuqlaridan mahrum qilishga, pirovard natijada yurtimizni o'ziga qaram qilib olishga qaratilgan zamonaviy tajovuzkorlikning mafkuraviy bir shaklidir.

Xalqimizni turli g'oyaviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonuniyatlarini o'zida chuqur aks ettiradigan sog'lom, insonparvar mafkura bilan qurollantirish zarur.

Har qanday jamiyat, davlat, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotda o'zining aniq yo'li, rivojlanish tamoyillariga ega bo'lgani kabi, milliy g'oya, milliy mafkura sohasida ham qat'iy tamoyillarga ega bo'lishi shart.

### IV. MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI

#### 1. Mohiyat-mazmuni

O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir.

Milliy istiqlol mafkurasi:

— O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;

— xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug'bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi;

— adolat va haqiqat, erkinlik va Mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi;

— yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

(Davomi bor.)

**XXI-ASR MUAMMOSI**

Hayot naqadar shirin. Umr esa insonga bir marta beriladi. Lekin mana shu shiringina umrni ham giyohvandlikka berilib qisqartirayotgan insonlar ham yo'q emas. Giyohvand moddalar insonlar hayotini barbod qilibgina qolmay, shirin turmushlarini jahannamga aylantirib, qabohatli yo'llarga kirishga majbur etmoqda. Bizga boshqa mavjudotlardan ajralib turishimiz uchun ham aql berilgan. Biz insonmiz. Nega aqlimizni ishlatib, o'ylab ko'rmaymiz? Giyohvandlikning oqibatlarini ko'ra-bila turib ham yo'ldan qayta olmaymiz, undan butkul voz kecha olmayapmiz. Menimcha bunga sabab faqatgina beparvolik va oila muhiti, oiladagi ota-onalarning o'z burchlarini unutib qo'yayotganlari, qo'shnilarning beparvoligi oqibati bo'lsa kerak. Mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shni ham tarbiyada katta rol o'ynaydi. Agar ozgina e'tiborli bo'lib, befarq bo'lmasak, bu kabi salbiy illatlar yo'q bo'lib ketardi.

**Go'zal QOSIMJONOVA,**  
Poytaxtimizdagi 116 - maktabning  
8 - sinf o'quvchisi.

**AYYOMINGIZ MUBORAK**

Mustaqillik bayrami kuni biznikida qo'shaloq tantana bo'ldi. Onajonim va singlim Sohibaxonlarning tug'ilgan kunlarini nishonladik.

Ularni O'zbekiston Mustaqilligi kuni bilan va tavallud ayyomlari bilan oilamiz nomidan tabriklayman. Ularga mustaqilligimizning 100 yilligini ham ko'rish nasib qilsin.

**Robiya ORTIQOVA,**  
A.Ikromov tumanidagi  
193 - maktabning 7- «V» sinf  
o'quvchisi.

**XATLAR TEGIRMONI****OMADLI YIL**

O'tayotgan yil men uchun omaddi bo'ldi. Qoraqalpog'istondagi bolalar gazetasii bo'lmish «Jetkinshek» tomonidan uyushtirilgan «Mehribonim azizim onam», «Suv - gavhar, suv - hayot», «Eng yaxshi yozilgan bolalar milliy o'yini uchun» tanlovlarida qatnashib, yuqori o'rinlarni egalladim. Bundan tashqari, «Nafosat» yosh qalamkashlar tanlovida qatnashib, tumanda, Respublikada g'oliblikni kiritgach O'zbekiston miqyosidagi «Nafosat» tanlovida ishtirok etishga muvaffaq bo'ldim. Yana maktablararo o'tkazilgan «Prezident asarlari bilimdoni» tanlovida qatnashib, faxrli 3-o'rinni oldim. Albatta bunda ustozlarimning mehnatlari ko'p. Men ularga chin dilimdan minnatdorchilik bildiraman.

**Bibimaryam XO'JANOVA,**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
Xo'jayli tumanidagi  
57-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

**OLMALIQNI BILASIZMI?**

Mening ona shahrim Olmaliqni bilmaydigan inson bo'lmasa kerak. Bizda kimyoviy-maishiy mahsulotlar ishlab chiqaradigan katta zavod bor. Tabiiy mahsulotlardan olinadigan tish pastasi, kir yuvish kukunlari va boshqa ko'p maishiy mahsulotlar ko'pchilikka ma'lum. Yaqinda bizda zamonaviy do'kon «Supermarket», «Baxt uyi», savdo-sotiq markazlari qurilib ishga tushirildi. Yirik korxonalar, zavod va fabrika ishchilariga yaxshi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Men o'z shahrimni juda yaxshi ko'raman.

**Shohsanam TURDIQULOVA,**  
Toshkent viloyati, Olmaliq  
shahridagi, 19-o'rta maktabning  
5- «V» sinf o'quvchisi.


**BOLAJONLAR OZOR CHEKMASIN**

Avvallari giyohvandlik, giyohvandlar haqida ko'p eshitardimu ammo bu so'zlarning mazmun-mohiyatini to'liq anglab yetmasdim. Hozir esa XXI - asr vabosi bo'lmish bu illatning ma'nosini, uning oqibatlarini juda yaxshi bilaman...

Yaqinda O'zTeleRadio Kompaniyasi va «UNESCO» ning Toshkentdagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tayyorlanayotgan «Ipak Yo'li» nomli radioserialda Suhrob ismli bola rolini ijro etdim. Serialga hayotiy voqealar asos qilib olingan. Suhrobning otasi Ali giyohvand bo'lib, o'z farzandining kiyim-kechaklarini sotib, giyohvand moddalari sotib oladi. U shu darajaga borib yetadiki, ota-onasi, bola-chaqasi yashab turgan uyini qo'shnisiga pullab, nafsini qondirmoqchi bo'ladi. Eng achinarlisi, otasi tufayli bolalari ko'chada bemalol o'ynay olmaydilar. Do'stlari ularga: «Otang giyohvand, senlar esa kasalsanlar, biz senlar bilan o'ynamaymiz», - deya xafa qiladilar. Bu rolni o'ynash jarayonida o'zimni ancha ulg'ayib qolgandek his qildim. Xuddi hayotdagidek Sardorga juda-juda achindim...

Bu kabi ko'ngilsiz holatlar televizorda, radioda bo'lsa ham, hayotimizda uchramasin. Begunoh bolajonlar hecham ozor chekmasinlar!

**Mahmudjon AZIMOV,**  
Shayxontohur tumanidagi  
169 - maktabning 5 - sinf o'quvchisi.



## GULLAR SHAHRIGA BORDIM

Ta'til kunlari ham nihoyasiga yetdi. Lekin har birimizning bu yozda olgan taassurotlarimiz xotiramizda uzoq saqlanib qoladi.

Ta'til kunlarida Andijon va Namangan shaharlarini tomosha qilib keldim. Bu shaharlarni bekorga «gullar shahri» deb atashmas ekan. Shaharga kirib kelishingiz bilan dimog'ingizga yoqimli hid uriladi. Yo'l yoqalaridagi gullar hammaga tabassum bilan boqayotganga o'xshaydi. Yangi-yangi binolar qad rostlagan. Ayniqsa, kollejlari litseylarni ko'pligini aytmaydizmi. Yangi ta'mirlangan maktablarda barcha talabalar va o'quvchilar o'z ustozlari bilan o'qish boshlanishiga chor-atrofnii tozalayotgan ekan. Kechki payt sayr qilgani chiqdik va O'rta Osiyoda yagona bo'lgan ulkan favvorani ko'rib, hayratda qoldik. Gullar shahridan olgan taassurotlarimni do'stlarimga albatta so'zlab beraman.

*Nazokat BOBOQULOVA.*

## 85 FOIZI YOSHLAR EKAN

Darhaqiqat, giyohvand moddalarini iste'mol qiluvchilarning 85 foizini yoshlar tashkil qilar ekan. Shunday ekan, barchamiz ogoh bo'lishimiz, do'stimiz, maktabdoshimiz, mahalladoshimiz nimalar bilan band ekanligi bilan qiziqishimiz lozim. Bu borada bizning maktabimizda ko'plab ijobiy ishlar qilinyapti. Mutaxassislar, shifokorlar bilan uchrashuvlar, tadbirlar o'tkazilyapti, sahna ko'rinishlari namoyish etilyapti. Yaqinda giyohvandlik mavzusidagi insholar tanlovi uyushtirdik, chizgan rasmlarimizdan ko'rgazmalar tashkil qildik. Ko'rgazmamiz maktabimizga kelgan mehmonlarga ham ma'qul bo'ldi. Umid qilamanki, bizning oramizda bunday noma'qul yo'llarga kiradigan yoshlar uchramaydi. Bunday tadbirlar boshqa maktablarda ham tez-tez bo'lib tursa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

*Dilrabo YUNUSOVA,  
Toshkent shahar, Sobir  
Rahimov tumanidagi Obid  
Sodiqov nomli maktabning  
8 - sinf o'quvchisi.*

## OPPOQ DALALAR CHORLAYDI

O'lkamizga qo'yni-qo'njini nozu-ne'matlarga to'ldirib, kuz ham kirib keldi. Shu kunlarda qishlog'imizni bir ko'rsangiz edi. Mevalari g'arq pishgan bog'larni, sabzavotlarga boy polizlarni ko'rib ko'zingiz quvnaydi. Ayniqsa, paxtalari chamandek ochilgan dalalarni aytmaydizmi? Ota-onalarmingiz, aka va opalarimiz allaqachon paxta terimiga tushib ketishgan. Biz ham sinf rahbarimiz Oysha opa boshchiligida har fursatni g'animat bilib, darslardan so'ng dalaga chiqyapmiz. Oppoq bo'lib ochilgan paxtalarni yig'ib-terib olishda kattalarga ko'maklashyapmiz. Ota-onalarimizga biroz bo'lsa-da ko'magimiz tegayotganidan xursandmiz.

*Nilufar ERMATOVA,  
Toshkent viloyati, Bekobod  
tumanidagi 18 - o'rta  
maktabning 8-«A» sinf  
o'quvchisi.*

Istiqlolimizning 11 yilligi munosabati bilan turli tadbirlar, uchrashuvlar bo'lib o'tmoqda. Shunday tadbirlardan biri Misr Arab Respublikasi elchixonasi va Misr fan ta'limi markazi boshchiligida bo'lib o'tgan kino haftaligidir.

Misr Arab Respublikasida iyul inqilobining 50 yilligi hamda O'zbekiston - Misr aloqalariga 10 yil to'lishi munosabatiga bag'ishlangan ushbu festival uch kun davomida Milliy Akademik drama teatri binosida bo'lib o'tdi va Misr filmlari xalqimizga taqdim etildi.

Tadbirni Misrning O'zbekistondagi elchisi janob Gamil Fayid ochib berdi:

-Biz bu tantanani O'zbekiston Mustaqilligining 11 yilligi arafasida o'tkazyapmiz. Fursatdan foydalanib,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovga samimiy tabrigimni yuboraman.



So'zimni muxtasar qilib, sizlarga «Uyimdagi begona» filmini taqdim etmoqchiman, -deb so'zlarini tugatdilar.

Film qiziqarli lavhalarga boy bo'lib, undagi bosh rollarni Misrning taniqli aktyorlaridan Nuri Sharif va Nabida Assaamlar ijro etishgan ekan. Voqealar Ashraf ismli bolaning hayoti haqida boshlanib, uning qanday qilib boshqa tengdoshlari kabi o'z otasini topguniga qadar davom etadi. U mashhur futbol yulduzi Shixota Abu Kaf bo'ladi. Unga qadar esa turli qiziq holatlar, kulguli «mojarolar» bo'lib o'tadi...

Filmni tomoshabinlar juda yaxshi kutib olishdi. Bu kabi festivallarni tez-tez o'tkazib turish xalqlar o'rtasidagi ma'daniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

*Nilufar MO'MINOVA,  
Poytaxtimizdagi  
272 - maktabning 7-«V» sinf  
o'quvchisi.*

## Ovunchog'im - o'yinchog'im

«Shokoladli tuxum» Yaponiyada eng mashhur, xaridorbop mahsulotdir. Uning siri shundaki, tuxumlar ichidan nozik did bilan yasalgan «haqiqiy» hayvonchalar, multfilm qahramonlari va qo'g'irchoqlarning chiqishidir. Yildan-yilga mitti o'yinchoqlarni yig'ib to'playdiganlar soni ko'payib bormoqda. Bugungi kunda nafaqat bolalar, balki kattalar ham o'z xonalari peshtoqlarini yuzlab shaklchalar bilan yasatib qo'yishgan.

Mitti o'yinchoqlar bozori Yaponiyada 80-yillar boshlarida

ham bo'laveradi. Biroq u paytda aslini eslatuvchi mayda detallari ishlab chiqarilmas edi. Shaklchalar ham qo'polroq, beo'xshov edi. Shuning uchun ham men do'stlarim bilan ana shunday firma ochishga qaror qildim. Bu yog' esa uzoq tarix».

«Kayyodo» 3000 dan ziyod o'yinchoqlar - Ultra odam, Godzilla, dinozavr, jonivor, multfilm va komiks qahramonlarini



«Xokiyuto no Ken» filmidan Kensiro va Lao. Atletik harakatlarni amalga oshira oladigan shakllar.

## A T O V I R O ' Y I N C H O Q L A R


tuxum» - bu ichi g'ovak tuxumsimon



Miyavaka Syuiti.

ishlab chiqardi. Hatto Amerika talabiga muvofiq tabiat tarixi muzeyi uchun Dinozavrlar yasab berdi. Bu «Kayyodo»ning butun dunyodagi obro' yidan dalolatdir.

Miyavakaning aytishicha, eng s o ' n g g i texnologiya bilan ta'minlangan kompaniya uchun bir necha barobar kichraytirilgan shakllarni yasash qiyin emas, biroq aynan asliga o'xshatish, o'yinchoqlar



90- yillarda o'yinchoq sanoatini rivojlantirgan «Luna» multfilmi.

shokolad. Tuxum sindirilsagina ichida nima bor ekanligi ma'lum bo'ladi. Aslida bunday texnologiyaga Italiyada asos solingan. Yaponiyada esa Furuta Konfeksheneri Kompani Limited shug'ullanadi. Uning 120 turi mavjud.

Nima uchun bu mahsulot shov-shuvlarga sabab bo'ldi? -degan savolga: «Birinchi, -deydi Miyavaka, - ular juda arzon, bor yo'g'i 150 iyen. Keyin zamonaviy madaniyat mahsuloti bo'lmish shaklchalarimiz dunyoni zabt



Shayton odamning hamlisi.

vujudga keldi. Borgan sayin rivojlangan xaridorbop shakllar o'ta mashhurligi bilan butun dunyoga tarqalmoqda.

Dahshatli mahluqlar, jonivorlar, fantastik qahramonlar aks etgan shakllarni ishlab chiqaradigan «Kayyodo» firmasi boshqaruv direktori Miyavaka Syuiti shunday deydi: «Bolaligimda shunday mitti o'yinchoqlarni o'ynashni juda ham yaxshi ko'rardim. Ularni doimo yoningizda, sumkangizda olib yursangiz



Gamela kallasi xuddi sizni yeb qo'yishga shaydek.

yasash uchun ishlatiladigan mahsulotlarning plastik, egiluvchan va yumshoq bo'lishi eng muhimidir. Shundagina ustaning mahorati namoyon bo'ladi. Xaridor mamnun qoladi.

«Shokoladli

etayotganidan behad xursandman. Mayda-chuyda detallarigacha e'tibordan qoldirmay ishlab chiqaradigan texnologiyamiz jahondagi eng zo'ridir.

Ha, bozorda paydo bo'layotgan Yaponiya mahsuli - yangidan-yangi shakllar, mitti o'yinchoqlar bolalarga, kattalarga quvonch ulashmoqda.

Muharrama PIRMATOVA.

## Maktabim - seni saqlagum

Mana ta'til ham tugab, barcha maktablar yana o'quvchilarni quchoq ochib kutib oldi. Ta'til davomida maktabini, sinfdoshlari-yu ustozlarini sog'inib qolgan o'quvchilar esa bilim maskanlari tomon oshiqdilar.

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi, Fitrat nomli 45-maktab o'quvchilari ham shular jumlasidandir.

«Maktabim - seni saqlagum» rukni ostida berilayotgan bugungi sahifamizda ana shu maktab haqida so'z yuritiladi.

Ushbu maskan viloyatda eng namunali maktablardan biri hisoblanadi. Keling, yaxshisi bu xususda maktab o'quvchilarining o'zlaridan eshitaylik.

### BIRINCHI NAVBATDA INTIZOM

Yozgi ta'tilim qanchalik maroqli, mazmunli o'tmasin, baribir sevimli maktabimni, o'z kasbining fidoyisi va jonkuyari bo'lgan ustozlarimni sog'inib qolaman. Ular doimo tartib- intizomni birinchi navbatga qo'yishadi. Shuning uchun ham darslarimiz tinch, osuda o'tadi. Darsga kech qoluvchilar deyarli yo'q. Sababsiz maktabga kelmaydiganlar esa umuman bo'lmaydi. Chunki ustozlar o'ta talabchan va bilimdonlar. Ulardan R.Rahmatov, R.Hotamova, M.Do'stova, Z.Ahmedova, M.Murodova, M.Umarova, G.Navro'zova, Z.Najmiddinoyalarni har qancha e'zozlasak arziydi. Mana shunday ustozlar qo'lida ta'lim- tarbiya olayotganimdan faxrlanaman.



Sevara NEKOVA,  
8- sinf o'quvchisi.

### 5000 MING TUP TERAK EKDIK

O'tgan o'quv yili yakunida maktabimiz bog'iga 5000 ming tup terak ekdik. Bunda har bir sinf o'quvchisi faol ishtirok etdi. O'qituvchilarimiz ham qarab turishmadi.

Bugun ana shu teraklarimiz bo'y cho'zibdi. Ko'rib rosa quvondik.

Shanbalik o'tkazib, daraxtlar atrofini oqladik. Gulzorlarimizni tekisladik. Sinfxonalarimizni hovlilarni yana bir bor tozaladik. Maktabimiz yanada chiroy ochdi.

Biz o'quvchilar maktabimizdagi jihozlarni saqlashimiz, bog'larini ko'kartirishimiz kerakligini yana bir bor his qildik.



Zarnigor NEKOVA,  
8- sinf o'quvchisi.

### MUSOBAQALARDA FAOLMIZ

Maktabimiz o'quvchilari tuman, viloyat va Respublikada o'tkaziladigan barcha tadbirlarda nafaqat faol ishtirok etadi, balki g'oliblikni qo'lga kiritadi. Jumladan, men o'zim fan olimpiadalarida qatnashib, yaxshi natijalarga erishganman.



G'ijduvon televideniya idarasi «Ziyo» bilimdonlar o'yinida ham asosan bizning maktab o'quvchilari ishtirok etadilar.

Maktabimizda «Mash'al» deb nomlangan sport guruhimiz ham bor. Guruh bir necha marotaba Respublika «Quvnoq startlar» telemusobaqasida g'olib deb topilgan. Bundan biz o'quvchilar sira mag'rurlanib ketmaymiz. Ko'proq o'qishimiz, izlanishimiz kerakligini tushunamiz. Sport mashg'ulotlarini esa kanda qilmaymiz.

Ulug'bek AZIZOV,  
8- sinf o'quvchisi.

### RAFAEL AKANING HISSASI KATTA

Maktabimizdagi aka- opalarim direktorimizni juda hurmat qilishadi. Ularning gaplarini so'zsiz bajarishadi. Barcha yaxshi ishlarimizga direktorimiz Rafael Rahmatov bosh bo'ladilar, deyishadi.



Rafael aka o'n ikki yildan buyon maktabimizga rahbarlik qilib kelar ekanlar. Shu yillar mobaynida maktabimiz juda yaxshi natijalarga erishib kelarkan.

O'tgan yili Rafael akaning yaxshi xizmatlari inobatga olinib, ularga «Xalq ta'limi a'lochisi» nishoni berildi. Bundan biz o'quvchilar va maktab jamoasi birdek xursand bo'ldik. Rafael akaga va albatta barcha mehribon ustozlarimga sog' bo'ling, katta- katta unvonlar oling degimiz keladi.

Nasiba SHAROPOVA,  
2- sinf o'quvchisi.


## QOVOQVOYNING

(2 pardali, 7 ko'rinishli ertak. Yangi varianti.)

**(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)**  
**Qovoqvoy:** Buzilmasmi qoida?  
**G'ujumoy:** O'ynaymizmi shu joyda?  
 O'zim bo'laman sudya,  
 Yutganga bor zo'r hadya...  
*(Tarvuz bilan G'ujumoy yugurib chiqib ketishib boksyorlar qo'lqopini topib kelishadi. O'yin boshlanadi. Oldin Qovoqvoy bor kuchi bilan harakat qiladi. Tarvuzning mazasi qochadi. Keyin Tarvuz kuch yig'ib Qovoqvoyni yenga boshlaydi. Oxirida Tarvuz yutadi. Qovoqvoy o'tirib oladi. G'ujumoy Tarvuzga bir bankada suv keltiradi. Tarvuz esa uni Qovoqvoyga beradi, u ichib oladi, o'rnidan turadi, Tarvuz bilan ko'rishadi.)*  
**Qovoqvoy:** Hammadan oldin ketay, Juda zo'rini tutay.  
*(Ketadi.)*  
**Chanoqvoy:** Qovoq o'rtoq, qani yur.  
**G'ujumoy:** Sal dam olay, shoshmay tur.  
*(G'ujumoy chiqadi.)*  
**Qovoqvoy:** Bir oz poylasam agar, Kelib qolar sehrgar.  
**Chanoqvoy:** «Ikkiti besh bo'lar o'n,

Do'stlar aytgan gapga ko'n!» xavotir,  
 Deya aytuvding o'zing, Bo'lmoqdaman betoqat,  
 Bitta bo'lsin-da, so'zing! Hozir kerakmas ovqat.  
*(G'ujumoy yana hovliqib kiradi.)* Bo'lmoqchiman mard, botir.  
**G'ujumoy:** Yuguringlar, yuguring, Gapning ochig'in aytsam,  
 Qovunga yordam bering, Sehrgar berdi yordam.  
 U cho'zilib yotibdi, *(Bir chetda ularga bilintirmay Sehrgar ko'rinadi. Uning gapini eshitadi.)*  
 Kimlardir tosh otibdi.  
*(Chanoqvoy yugurib ketadi.)*  
**Tarvuz:** Oramizda bor josus, Sehrgaring bo'ldi kim?  
 Ish ko'rmoqda g'alamis. **Qovoqvoy:** Ko'p gapirmang, bo'ling jim.  
 Hasharotlarga birdak, **Qovoqvoy:**  
 Berib kelmoqda ko'mak. *(O'zicha.)*  
*(Birdan yig'lab.)* Terak shoxi  
 Ey, og'aynim Qovunjon, bo'lar mo'rt,  
 Ishqilib bo'lg'in omon! Ikki karra ikki — to'rt.  
*(G'ujumoy, Tarvuz, Handalak yugurib chiqib ketishadi.)* Do'sting aytgan gapga ko'n,  
**Qovoqvoy:** Beshta ikki bo'lar o'n.  
*(O'zidan xavotir olib.)* *(O'yinga tushadi, oyisi chapak chaladi.)*  
 Kimni deyapti josus! Ha, ha, beshta ikki bo'lar o'n,  
 Yaxshi emas bunday so'z. O'rganvolish ekan jo'n.  
 Menga ishora qilar, Qilsam badantarbiya,  
 Balki sirimni bilar. Yaxshi ishlaydi miya.  
*(Shu paytda Qovoqxola o'g'lini qidirib kelib qoladi.)*  
**Qovoqxola:** Beshta ikki bo'lar o'n,  
 Bofajonim, Qovoqvoy, Do'stlar aytgan gapga ko'n.  
 Qorning ochgan Dilim alag'da edi,  
 hoynahoy, Keta qolayin endi.  
 Poyladim qilmay toqat, **Qovoqvoy:**  
 Yedingmi biror ovqat? Ketsangiz, keting mayli,  
 Oppog'im, nima deysan, Eh, Sehrgar tufayli  
 Ayta qol, nima yeysan? Ko'p narsa bilib olay,  
*(Chontagini kovlaydi.)* Ish soz bo'lar harqalay.  
**Qovoqvoy:** Mendan olmang *(Onasi chiqib*

ketgach, Sehrgar berkinib turgan joyidan chiqadi.  
 Qovoqvoy indamay teskari qarab turgan Sehrgarni ko'rib sevinadi.)  
**Qovoqvoy:** Sehrgar bobo, salom,  
 Kelmaysiz deb batamom Umidimni uzgandim,  
 O'zga reja tuzgandim.  
 Yashasin! Endi mazza!  
 Sira bo'lmayman izza.  
**Sehrgar:** Yasha, Qovoqvoy yasha!  
 Shartimizga yarasha —  
 O'rganibsan astoydil,  
 Qoyilman, juda qoyil.  
**Qovoqvoy:** Mashqni bajardim biroz.  
**Sehrgar:** Bu ishing bo'lmabdi soz.  
 Harakatdan albatta,  
 Kirarding-a g'ayratga,  
 Yengar eding Tarvuzni.  
**Qovoqvoy:** Kim aytdi-a bu so'zni?  
 Qanday bildingiz bobo?  
**Sehrgar:** Buncha so'raysan, obbo,  
 Gapga chalg'itma meni,  
 Mashqni boshlaymiz qani.  
**Qovoqvoy:** To'qqiz joyda uch —  
 Yigirma yetti.  
**Sehrgar:** Qovunjonga ham  
 Jarohat yetdi.  
**Qovoqvoy:** Qoyilman sehringizga.  
**Sehrgar:** Aytganimni qil takror  
 Degan edim necha bor.  
**Qovoqvoy:** Besh joyda to'qqiz —  
 Qirq beshdir, shaksiz.  
**Sehrgar:** O'nta o'n?





## SARGUZASHTI

Po'lat MO'MIN

**Qovoqvoy:**

Bo'lar yuzta.

**Sehrgar:**

Bo'libsan ancha usta.

Bekor ishga yugurma.

**Qovoqvoy:**

Besh karra to'rt — yigirma.

**Sehrgar:**

Dars o'tamiz kun ora.

Yoz ichida sen zora

O'rgansang karra jadval,

Bo'lmasding sira o'sal.

Ko'p ishing hal bo'lardi,

Do'stlar ko'ngli to'lardi.

Unutmagin sen shuni:

Do'stlaringga har kuni

Yordam berishdan qochma,

To'g'ri yo'ldan adashma.

*(Sehrgar g'oyib bo'ladi.)***Qovoqvoy:**

Yordam berishdan qochma,

To'g'ri yo'ldan adashma!

Qovoqvoy o'ylang, qani...

*(Sehrgar ketidan yuguradi.)*

Bir oz to'xtang arzim bor,

Etay sizni xabardor.

**Sehrgar:***(Qaytib qolib.)*

Qani gapir bolakay.

**Qovoqvoy:**

Quloq soling, men aytay,

Gapim bor juda qiziq.

Olgan edim topshiriq.

**Sehrgar:**

Ya'ni bir to'rva urug'?

**Qovoqvoy:**

Undan sira qolgan yo'q.

Allaqachon yo'qotdim,

Chuqur tomonga otdim,

Shuning uchunmi Tarvuz —

Meni-chi, deydi josus.

**Sehrgar:**

Bu ishingdan ehtimol,

Xabari bordir xiyol.

**Qovoqvoy:**

Shubha qilar bekorga.

**Sehrgar:**

Xo'p, qani ketdik g'orga.

**Qovoqvoy:**

Mayli birga boraman,

Beriroqda turaman.

Ular urug'ni so'rar.

**Sehrgar:**

Yo bo'lmasa yeb qo'yar,

Kimki bo'lsa agar mard

Qo'ymaydi bunaqa shart.

Sen go'yo bahodirsan,

Hamma ishga qodirsan.

**Qovoqvoy:***(Dadillanib.)*

Mayli borganim

bo'lsin,

Yomon qoni to'kilsin.

*(Shahdam**qadadam**tashlab**ketishadi.)***(PARDA.)****OLTINCHI  
KO'RINISH***(Ikkinchi**ko'rinishdagi**O'rgimchakkana qarorgohi.**O'rgimchakkana yuziga to'r**tutib olgan. Huzurida**askarlari. Ular o'yin tushib**ashula aytishmoqda.)***Chigirtka:**

Men Chigirtka, Chigirtka,

Yemish bo'lsa chiqitga —

Chiqarmasdan yegayman,

Kuchim teng bir yigitga.

**Ko'sak qurti:***(Jo'r bo'lib.)*

Yemish bo'lsa, chiqitga —

Chiqarmaydi Chigirtka, o...

**Boshqalar:**

Chiqitga-yo, chiqitga-yo,

chiqitga...

**Ko'sak qurti:**

Yumalayman gohida,

O'rmalayman gohida,

Mazza qilib yuraman

G'o'zalarning shoxida.

Bizlar yashil tusdamiz,

Yemirishga ustamiz.

**Boshqalar:**

Ustasiz-o, ustasiz-o, ustasiz...

*(Shu paytda ularga**sezdirmay Sehrgar bilan**Qovoqvoy kirib kelib**kuzatishadi. Birdan qo'shiq-**o'yin to'xtaydi.)***O'rgimchakkana:**

To'xtatinglar o'yinni,

Egmaysanlar bo'yinni.

Paxtazorga yurdim men,

G'o'zalarni ko'rdim

men.

Paykal-paykal

g'o'zalar

Ko'rmagan sira zarar.

**Chigirtka:**

E, e, muhtaram

janob,

Bo'lmangiz

buncha xunob.

**Ko'sak qurti:**

Topshiriqni ul

Qovoq,

Bajarmayapti biroq.

**O'rgimchakkana:**

Senlar tekin yeysanlar,

So'zni yolg'on deysanlar.

Lapashanglar, bo'shanglar,

Baring ishdan bo'shanglar.

Hammasini bilurman,

Aytganimni qilurman,

Har tomonga choplaring,

Gunohkorni toplaring.

*(Hasharotlar sekin-asta**chiqib ketishadi. Bu gapni**eshitgan Qovoqvoy**Sehrgarning orqasiga**berkinadi.)***Sehrgar:**

Salom, O'rgimchakkana,

Nega xunobsan yana?

**O'rgimchakkana:**

So'zla, kim bo'lding o'zing?

G'alatiroq-ku so'zing!

Kirib kelding qayoqdan?

**Sehrgar:**

Kelganmiz eshik yoqdan.

Aslimni desang agar,  
Ertakdagi sehrgar!

Barchaga yordam

bermak

Men uchun sharaf

demak.

Kelganimdan, albatta,

Qolmoqdasan hayratda.

Gunohkordan

so'ylading,

Qovoqvoyini o'ylading.

O'ylaganingni go'yo

Eta olurman paydo.

**O'rgimchakkana:**

Qovoqvoy, yo'g'-u,

qani,

Aldayapsanmi mani?

**Sehrgar:**

Bilsang, uni sehr etib —

Qo'yganman-da,

berkitib,

Istasam-chi, bir zumda

Keltiraman izimdan.

*(Ammo Qovoqvoyini**Sehrgar topolmaydi,**qochgan bo'ladi,**qidiradi, chiqadi.)***O'rgimchakkana:***(Yolg'iz qolib.)*

Sehrgar bo'lsa rostdan

Topmas edi bexosdan,

Yordam so'rasammikan?

To'rga o'rasammikan?

Qovoqni keltirsa-chi,

Sehrgardir chippa-chin.

*(Shu paytda Sehrgar**Qovoqvoyini yetaklab**keladi. Indamay yerga**qarab turadi.)***(Davomi bor.)**

## ABADYYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

*Ushbu rukni Rustam OBID olib boradi*

Maktab darsliklarida asrlar mobaynida bahsu munozaralar elagidan o'tgan, behisob tajribalar yordamida tozalangan, sayqallangan haqiqat o'qitiladi. Vaholanki, dunyoda eng

Bilimim shu yerga yetib keldikim,  
Bilimsizligimni endi tushundim.  
*Abu Shukur Balxiy*

bergan Lavuaze bu adashuvni chilparchin qilib tashladi va shu bilan avvalgi gunohini yuvgandek bo'ldi. Nachora, Oyda ham dog' bor, hatto Quyoshday porloq jism ham vaqti kelganda tutiladi. Yana qizig'i shundaki, ilm-fan tarixida yanglishgan olimlar

chang'i uchib yurganidan mutlaqo bexabar. Holbuki, vaqti-soati kelib, Lomonosovning asarlari flogistonning qisqa muddatli shon-shuhrati puch ekanligini isbotlab beradi. Boshqa bir

Buyuk kishilar olmos yanglig'  
noyob va shu qadar serjilodir.  
*Sharq naqli*

qiziqarli fan — bu yanglishuvlar, adashuvlar tarixidir.


Masalan, sobiq SSSRda o'z vaqtida genetika, kibernetika kabi ilmlar burjua fani, soxta fan deb e'lon qilingan, ularga qarshi kurash olib borilgan edi. Oxir-oqibatda bundan faqat o'zi zarar ko'rdi hamda shu fanlar taraqqiyoti bo'yicha jahon darajasidan necha o'n yillarga ortda qolib ketdi. Xuddi shuningdek, Charlz Darvinning inson maymundan paydo bo'lgani haqidagi nazariyasi, Marks, Engels, Leninning sotsializm, kommunizm to'g'risidagi g'oyalari uzoq vaqtlargacha insoniyatni yo'ldan adashtirib keldi.

Ilm-fandagi yanglishuvlarga odatda olimlarning izzat-obro'yi, mavqei sabab bo'ladi. «Falonchi shunday dedimi - demak to'g'ri» deb ketaveradi, hamma. Holbuki, o'sha «falonchi» naqadar ulug' daho bo'lmasin, baribir odam, adashuvi mumkin. Buyuk kishilarning xatosi ham buyuk bo'ladi. Misol uchun Fransuz Fanlar akademiyasining «Osmondan tosh tushishi mumkin emas, chunki u yerda tosh yo'q» degan xulosasiga kimsan - Akademiya direktori, mashhur olim Antuan Loran Lavuaze imzo chekkan edi! Bu xato juda qimmatga tushdi. Uning oqibatida meteorlarni o'rganish ilmi uzoq zamonlar rivojlanmay qolib ketdi.

Kimyo fani taraqqiyotiga esa flogiston nazariyasi degan soxta ta'limot uzoq vaqtlar to'g'anoq bo'lib kelgan. Taqdir o'yinlarini qarangki, yuqoridagi yanglishuvni boshlab

## GAROMB TAQDIRI KIMYOGAR

adashayotganini bilmagan, balki mening g'oyam to'g'ri deb, astoydil ishongan.



Taniqli kimyogar va fiziolog Georg Ernst Shtal benihoya iste'dodli odam edi. Flogistonni o'ylab topgani uchun ham uzoq yillar mobaynida Yevropa kimyogarlarning obro'-e'tiboriga sazovor bo'ldi. Uning farazi ham bunday o'ylab qaraganda, unchalik sodda yo bema'ni tuyulmaydi. Go'yo hamma narsa mantiqiy jihatdan to'g'ridek ko'rinadi. Mazkur ta'limotga ko'ra, yonuvchi jismlarning barchasida flogiston degan bir modda mavjud. Jism qizdirilganda u ajralib chiqadi va shu tufayli jismning xossalari o'zgaradi. Boshqacha aytganda, yog'och - bu flogiston plus kul, metal - flogiston plus oksid. Alkimyoning ko'p asrlik tajribasizliklaridan keyin ehtimol ilk bora ko'pdan orziqib kutilgan tizimga o'xshash bir nima paydo bo'lgandi.

Berlinda ishlayotgan Shtal unga noma'lum olis Arxangelsk zaminida Mixaylo Lomonosov degan bir bolakay

bolakay — Parij parlamenti prokurorining o'g'li, badavlat xonadonda har tomonlama parvarish topuvchi Antuan Loran Lavuaze esa hali dunyoga kelganicha yo'q edi. Fursati kelib, u flogistonni bir yo'la dafn etadi. Ilm-fan tarixidan yaxshi ma'lumki, ko'plab iste'dodlar hayotda biron nimaga erishish uchun ko'p azob chekishadi. Lavuaze bundaylardan bo'lmadi. Uning qobiliyatlari bolaligidayoq yaqqol ko'ringan va har tomonlama qo'llab-quvvatlangan. Biroq taqdir deganlari g'alati narsa. Keng ko'lamda bilim olgan, mablag'dan aslo qisilmagan

o'smir hayotda uzoq vaqtgacha o'z o'rmini topa olmaydi. Ilm-fan uning qismati ekanligini sezar, ammo biror sohani tanlashga qiynalardi. Lekin hatto shu davrda u fidoyiligi, o'z izlanishlariga haddan ziyod jiddiy munosabati bilan hayratga soladi. Masalan, yorug'lik manbalari bo'yicha tajriba o'tkazar ekan, yosh Antuan nigohining sezgirligini kuchaytirish maqsadida devorlari qora duxoba bilan qoplangan zim-ziyo xonada naq bir yarim oy qamalib oladi. Bunday qilish kerak emasdi balki, ammo hozirgi yoshlardan kimning shunga sabru irodasi yetadi? Usta ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar, deganlaridek yosh Antuan qanday mas'uliyatli sohaga qadam qo'yayotganini juda yaxshi bilgan holda o'z imkoniyatlarini o'zi bilganicha chamalab ko'rayotgandi.

(Davomi bor.)

## Bizning mehmon

**-Eng avvalo oilangiz haqida so'zlab bersangiz?**

-Men asli Surxondaryo viloyati, Sherobod shahridanman. Bizning oila ziyolilar oilasi desam adashmayman. Oilada to'ng'ich farzandman. Ota-onam, ikki singlim va ikki ukam bor.

**-Maktab davringizni eslay olasizmi? Birinchi bahoingiz va xotiralaringiz?**

-Ota-

Hozirda «Zakovat» ishqibozlariga yaxshi tanilib borayotgan, o'zining zukkoligi, hozirjavoblighi bilan e'tiborimizni qozonib kelayotgan Mohichehra Niyozova 1981 yil 21 sentyabrda, sunbula burji ostida tavallud topgan. Qizlarga xos bo'lgan loharligi-yu mehnatsevarligiga, ochiq ko'ngilliligi-yu shirin so'zligiga suhbatimiz davomida yana bir bor amin bo'ldim.

foydalanishga harakat qilaman.

**-Sportga qiziqasizmi?**

-Albatta, murabbiyim Jabbor aka Qo'ziyevdan karate sirlarini o'rganganman. Hozirda esa faqat yugurish bilan kifoyalanyapman.

**-Siz uchun eng katta sovg'a nima?**

-Atrofimdagilarning ishonchi, e'tibori va menga berilgan umid...

**-Endi sizni bizga tanitgan va tanitib kelayotgan «Zakovat»ga**

# BOLALIGIMDA FAZOGIR BO'LISHNI ORZU QILGANMAN

onam meni 21 - rus tilidagi maktabga berganlar. Birinchi bahoim albatta «besh» bo'lgan. Bundan juda xursand bo'lganman. Sinfdozlarim, ustozlarim bilan o'tgan damlarni unutib bo'larkanmi?..

**-Bolalikda hamma turli orzular qiladi. Biroq keyinchalik orzulari o'zgarib ketadi. Sizning bolalikdagi orzularingiz ushalmi?**

-Menda ham hamma qatori bolalik orzulari mo'ledi. Biri V.Tereshkova singari fazogir bo'lish, yana biri esa

javob bera oladilar.

**-Hayotdagi tayanchingiz?**

-Avvalo Alloh, ota-onam va yaqinlarim.

**-Bo'sh vaqtingizda nimalar bilan shug'ullanasiz?**

-Menda bo'sh vaqtning o'zi bo'lmaydi. Bo'lsa ham, undan unumli

**ilk qadamingiz?**

-Bu ko'rsatuv efir yuzini ko'rgandan beri uning ashaddiy muxlisiga aylandim. Qiziqishim ortib, klubga kelib, ma'lum bosqich sinovlaridan o'tib, Bobur Yoqubov jamoasi a'zosiga aylandim.

**-Jamoangizning yutug'i nimada deb o'ylaysiz?**

-Bizning o'zaro hamjihatligimizda va bir-birimizga ishonishimizda.

**-«Zakovat» hayotda nimaga o'rgatdi?**

-Eng avval o'zimizda mas'uliyatni, javobgarlikni sezishni o'rgandim.


**-Siz kabi bilimdonlarga astoydil**

**havas qiluvchi o'quvchilarga tilaklaringiz.**

-Yurtimiz doimo tinch va osuda bo'lsin. O'zbekistonning kelajagi bo'lgan tengdoshlarim hamisha orzu va maqsad sari intilib yashasinlar.

**Shodiya**

**ABDULLAYEVA**  
**suhbatlashdi.**



huquqshunos bo'lish. Hozir bir orzuim ushaldi desam xato qilmayman. Bo'lajak huquqshunosman.

**-O'zingiz haqingizda nima deya olasiz? Siz qanday insonlar toifasiga kirasiz?**

-Bu savolga mendan ko'ra ko'proq yaqinlarim

Ko'chamizda Naim aka degan kishi yashaydilar. Lekin ularni kunduz kunlari juda kam ko'ramiz. Kechqurunlari ko'chada o'tirganlarida allaqanday o'ychan nigohlarini uzoq-uzoqlarga tikib, xayol suradilar. Ular haqida oyijonimdan so'raganimda: - Bilmadim, bolam, bu kishi haqida qishlog'imizda turli mish-mishlar yuradi,-dedilar. Bir kuni Naim aka ko'chada yolg'iz o'tirganlarida yonlariga borib o'tirdim. U yoq-bu yoqdan gapirgan bo'lib, ularni kuzata boshladim. Shu payt qo'llariga ko'zim tushib qoldi. Ularning qo'llari allaqanday yaltiroq edi... Buning sababini esa, keyinroq o'zlari «yozilib» qolgan paytlarida bilib qoldim.

...Men mol boqadigan joyda kattagina kavak bor edi. O'g'lim Jahongir shu kavakda nima bor ekan-a, deb savol beraverardi. Men unga bu yerga yaqin kelmasligini ko'p

Bu voqeani menga buvijonim aytib bergandilar. U paytda buvijonim xuddi bizga o'xshagan jamalaksoch qizaloq bo'lgan ekanlar. Xullas, ularning yashaydigan qishloqlari bilan qo'shni qishloqni bir qil ko'prik bog'lab turarkan. Ko'prik juda baland bo'lib, tagidan kattagina soy oqib o'tarkan...

Bir kuni buvijonimning mahallalaridan bir kishi dom-

daraksiz yo'qolib qolibdi. U kishini Parpi Karnaychi deyisharkan. Chunki to'ylarda karnay chalarkanlar-da. Yo'qolishlaridan bir kun oldin qo'shni qishloqdagi to'yga borgan ekanlar. Ularni ikki kun deganda ko'prik tagidan behush holda topishibdi... Parpi Karnaychi o'ziga kelgach, bo'lgan voqeani qishloqdoshlariga aytib beribdilar...

Men to'ydan kelayotgandim. Yaxshigina kayfim ham bor edi. Ko'prikdan o'tayotsam, kimdir chaqirgandek bo'ldi. Bu bexosiyat ko'prikdan tezroq o'tib ketay deb yuramanu qadamim unmaydi. Shu

# YALTIROQ TERILI ODAM

tayinlardim. Baribir bola-da. Bir kuni o'rtoqlari bilan shu kavakni ichiga olov yoqishibdi. Buni qarangi, u yerdan katta ilon chiqib kelibdi. Ilonning vajohatidan qo'rqan bolalar har tomonga qocha boshlashibdi. O'g'lim yiqilib tushib, o'rnidan turolmay qolibdi. Shu vaqt ilon unga yaqinlashib, uni bo'g'a boshlabdi... Yaxshiyamki, o'sha vaqtda men kelib qoldim. Jigargo'shamni

ilonning changalida ko'm-ko'k bo'lib ketayotganini, borgan sari holdan toyyayotganini ko'rib, o'zimni ilonning ustiga tashladim. Yonimdan pichoqni chiqarib, ilonning duch kelgan joyiga sanchaverdim... Hushimga kelganimda, ilonning qonli tanasi orasida yotardim. Jon holatda o'g'limni chaqira boshladim. U mendan sal narida yotardi. Ovozimni eshitib, salgina qimirlagandan keyin jon o'zinniki bo'ldi. Mana, o'sha voqeaga ham ancha bo'ldi. Lekin, mening qo'llarimni terisi allaqanday yaltiroq bo'lib qoldi...

O'g'lining hayotini saqlab qolish uchun joni ham ko'ziga ko'rinmagan Naim akaga hurmatim yana ham oshdi...

*Zokirjon SODIQOV,  
Parkent tumani,  
Nomdanak qishlog'i.*

# KUNGLARDAN BIR KUN

o r a d a  
k u l g u  
tovushlarini  
eshitdim.

Engashib qaraganimni bilaman, kimdir pastga tortgandek «shuv» etib tushib ketdim. Endi o'ldim, deb o'ylagandim. Yo'q, pastga qattiq tushmadim.


deb o'yladim yana ichganimga afsuslandim ham. Shu vaqt bir kishi meni boshqa tomonga o'tirishga taklif

qildi. Men «Yo bismillo» deb o'rnimdan turganimni bilaman, haligi hiringlayotgan

odamlarning basharalari allaqanday bo'lib ketdi. Men kalimani to'laligicha qaytardim. Shu vaqt qarangi, ulardan nom-nishon ham qolmadi. Keyin bilmayman, ko'zimni ochsam, tepamda o'g'lim turibdi.

Qishloq ahli shu voqeadan keyin ko'prik tagidan faqat kalima keltirib o'tadigan, kechalari yolg'iz o'zlari yurmaydigan bo'lishibdi...

*Sofiya OBIDOVA,  
Toshkent viloyati,  
Yuqori Chirchiq tumani,  
Navoiy ko'chasi.*



Ko'prik tagida bir to'da odamlar yurishardi, musiqa, odamlarning ba'zilar raqsga tushardilar. To'yimi,

Assalomu alaykum aziz o'quvchilar. Sizlarni yangi o'quv yilingiz bilan muborakbod etamiz. Ushbu yilda sizga yangi omadlar, kuch-quvvat tilab, ingliz tilini o'rganishga yanada ko'proq vaqt sarflashingizni, uni puxta va chuqur bilish uchun bor imkoniyatingiz bilan intilishingizni maslahat beramiz. Gazetamizning o'tgan sonlaridan birida «Ingliz tilini o'rganamiz» nomli sahifamizda «Diplomatiya, uning tarixi va tashqi siyosat tushunchalari»ga oid inglizcha tekstni e'tiboringizga havola qilgan edik.

Bugungi darsimizda shu tekstga oid mashqlar, savollar, sinonim so'zlarga oid mashqlar, qiziqarli mavzulardagi yangi tekstlar hamda foydali bo'lgan grammatikaga oid test savollarini e'tiboringizga havola etamiz.

### 1-MASHQ.

Nuqtalar o'rniga mos keluvchi variantni, ya'ni fe'l shakllaridan birini, birlik yo ko'plikdagi otni, fe'l zamonlarini qo'ying.

### EXERCISE 1.

Choose the correct word forms to fit into each sentence. Use appropriate verb tense, singular or

## INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ



## WE LEARN ENGLISH

plural forms for nouns, and passive voice where necessary

- 1.nation, national, nationally.
  - a.That product was .... advertised on TV.
  - b.Do you know all of the words to the .... anthem?
  - c.Which is the largest ..... in the United Nations?
- 2.government, governor, to govern, government (governmental)
  - a.That is the new ..... office building.
  - b.at the present the Republicans control the .....
  - c.Has there ever been a woman ... in the United States?
  - d.He tried to ..... fairly and wisely.
- 3.danger, to endanger, dangerous, dangerously
  - a.During the war , people were accustomed to .....
  - b.They didn't choose to live .....

..but sometimes they had to.

- c.Try not to .....the lives of the children.
- d.People usually behave calmly in .....situations, but later they feel nervous and upset.

4.importance, important, importantly

a.»Do you have an appointment?» he asked me with an air of great ...

b.»No, but I have an ..... message.» I replied.

c.»In that case follow me,» he said as he walked. ....through the large archway.

5.relationship, relative, to be related
 

- a>Your mother is my father's second cousin, so that means we are ...!
- b.The. .... is rather distant.
- c.But still, you are my .....

6.agreement, to agree, agreeable
 

- a.He seemed to be an .....person.
- b.We made an ... to meet every year on March 15<sup>th</sup> and drink Champagne.
- c.She didn't .....with everything he said , and she told him so.

Sabog'imizni

Shohruhbek KARIMBEKOV tayyorladi.

1. Eron shohi (Mil. avv. 530 yillar.)

- a) Kir II;
- b) Bobur;
- s) Doro;
- d) Amir Temur.

2. Dunyodagi eng katta daryo?

- a) Eron daryosi;
- b) Amudaryo;
- s) Nil daryosi;
- d) Sirdaryo.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur necha yoshida taxtga o'tirgan?

- a) 34 yoshida;
- b) 20 yoshida;
- s) 19 yoshida;
- d) 12 yoshida.

4. Xristofor Kolumb kim?

- a) shoir;
- b) faylasuf;
- s) sayohatchi olim;
- d) astronom.

5. Birinchi bo'lib qaysi hayvon qo'lga o'rgatilgan?

- a) echki;
- b) it;
- s) sigir;
- d) ot.

6. Teshik-tosh g'oridan topilgan qadimgi odam suyagining nomi?

- a) Fergantrop;
- b) Kromaneon;
- s) Olduvay;
- d) Neandertal.

7. Qadimgi odamlar ilk marta nimalar yasashni o'rganishgan?

- a) bigiz;
- b) qirg'ich;
- s) uchli nayza;

d) hammasi to'g'ri.

8. Iskandar Zulqarnayn O'rta Osiyoga nechanchi yil yurish qilgan?

- a) 325-yil;
- b) 329-yil;
- s) 330-yil;
- d) 333-yil.

9. Eng qadimgi davlat nomi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Amerika;
- b) Baqtriya;
- s) Finikiya;
- d) Osuriya;

10. Avestoning Vatani?

- a) Jizzax;
- b) Ossuriya;
- s) Xorazm;
- d) Parfiya.


## TARIXDAN TEST

Javohir KOMILOV,  
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 117 - maktabning 6 - sinf o'quvchisi

## QIZALOQ


Atrofga boqasan ajib hayrat-la,  
Gulzoru bog'lardan zavq-shavq olarsan.  
Qizaloq, balki sen ushbu lahzada,  
Dunyo chiroyiga hayron qolarsan.  
Hali sen bilmaysan, ko'hna dunyoda,  
Faqat gulzor emas, cho'llar ham bisyor.  
Hali sen bilmaysan, bu keng olamning,  
Juda tor yo'llaru so'qmoqlari bor.

*Feruz* AHMEDOVA,  
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi  
7 - umumta'lim maktabning  
9-«A» sinf o'quvchisi.



Poytaxtimizdagi 320 - maktabning  
5- «V» sinf o'quvchisi Shukrullo  
HAKIMOV «Skripka chalayotgan  
qush»ni chizibdi.

## Bizning to'garak

MUSTAQILLIK  
TO'YIGA

Qalblarimiz mehrga to'lib,  
Hamma seni qutlamoqdadir.  
Yoshu qari shodlikka to'lib,  
Madhingni sho'x kuylamoqdadir.  
Quhog'ingda erkalab, asrab,  
Mehr bilan o'stirding bizni.  
Kelajaging egasi bo'lmish,  
Barkamol, shod, hur o'g'il-qizni.  
Bugun katta tantana, bayram,  
To'libsan sen qutlug' yoshingga.  
Tilagimiz tushmasin aslo,  
G'am, musibat oltin boshingga.

*G'ayratjon* QURBONOV,  
Alisher Navoiy Nomidagi Nafis san'at  
litseyining 9-«A» sinf o'quvchisi.

## OYMOMOGA

Oymomojon, oymomo,  
Tunda chiroy ochasan.  
Quyoshdan xafamisan,  
Nega undan qochasan?  
Savolinga javob ber,  
Menga aytgin biror so'z.  
Yoki tunda o'zingni,  
Qilmoqchimisan ko'z-ko'z?  
Tokaygacha osmonda,  
Kezasan yolg'iz o'zing.  
«Kel, birga o'ynaymiz» der,  
Yerdagi Yayra qizing.

*Yayra* ADINAYEVA,  
Toshkent viloyati, Ohangaron  
tumanidagi 12 - o'rta  
maktabning 7-«A» sinf  
o'quvchisi.

Andijonlik tengdoshingiz Gulruhbegim Odashboyeva Alisher Navoiy nomli  
Respublika Nafis san'at litseyida tahsil oladi. Ta'til kunlarida ona qishlog'i  
Lug'umbekda bo'lib, ijodga oshufta tengdoshlari bilan suhbatlashib, ularning orzu-  
umidlariga oshno tutinib qaytdi.

Quyida e'tiboringizga andijonlik tengdoshlaringiz ijodidan namunalar  
havola etyapmiz:

ASSALOM,  
MAKTAB!

Yuraklarda ajib bir  
tuyg'u,  
Sevinchlardan dilda  
hayajon.  
Bizni chorlar yangroq  
ovoz-la,  
Nurli maskan — maktab-  
onajon.  
Ilk qo'ng'iroq jaranglar  
yangroq,  
Barchamizni olqishlab  
bu kun.

Diydorlashuv,  
shodiyonada,  
Qalblarda hech qolmagay  
tugun.  
Quchoqlarda alvon rang  
gullar,  
Keltirganmiz ustozga  
atab.  
Hayajonu quvonchga  
to'lib,  
Deyajakmiz: «Assalom,  
MAKTAB!»  
*Gulruhbegim*  
ODASHBOYEVA.



## YOSHLIK

Yoshlik go'zal gul erur,  
So'lim umr bog'ida.  
Sho'x bulbul navo aylar,  
Ul ochilgan chog'ida.  
Yoshlik baxt quyoshining,  
Nurlarida cho'milar.  
Uning gulgun yuzida,  
Sevgi, mehr barq urar.  
Yovuz taqdir shamoli,  
Gulga hasad qiladi.  
Yaproqlarini to'kib,  
Mas'um qalbin tiladi.

*Dilshoda* RASULOVA.



## ASRA

Do'stim, senga xush kelib taqdir,  
Ulug' baxtni aylasa in'om.  
Yo'llaringga borliq sochsa nur,  
Baxt iqboling gullagan zamon.  
Mendek hokisor do'sting unutma,  
Sening uchun jondan kechaman.  
Mening tuhfam arzimasgina,  
Senga she'rim hadya etaman.  
Sen-chi, uni qadrla faqat,  
Men xo'rlikdan, darddan bezganman.  
Baytlarimni mehrga o'rab,  
Qalbim parchasidan tuzganman,  
Sen qalbimni asra avaylab...

*Gulnoza* BOYXONOVA,  
Andijondagi Yengil sanoat kolleji  
talabasi.



## BOLALIK

Ortda qoldi o'sha damlar,  
Qaytib kelmas hech qachon.  
Qalbim tilar dard, amlar,  
Qayda qolding, bolajon?  
Olislarda oh urarman,  
Bolaligimni eslab.  
Hayol elchisin yubordim,  
Har tomon seni izlab...  
Endi aytar so'zlarimni,  
So'ylayman shamollarga.  
Balki ular eltib borar,  
So'zimni sen tomonlarga.

*Tursunoy* UMRZOQOVA.

**Qashqadaryolik tengdoshingiz  
Nurxon BOZOROVA portret asarlarini  
yaratish borasida izlanyapti.**



## ACHCHIQ CHOY

- Oyingga ayt, achchiqqina choy damlab kelsin, - dedi Madinaga ishdan horib kelgan dadasi.

- Oyim non olgani do'konga ketuvdilar, o'zim damlab kelaqoldim, - deya choynakdagi choyni dadasining yoniga qo'ydi Madina.

Dadasi choydan ichib, hayron bo'ldi:  
- Qizim, choying nega juda achchiq?  
- Dadajon, axir o'zingiz achchiqqina choy damla, - degandingiz-ku...




*Dilrabo DO'STQOBILOVA,*

*Toshkentdagi 118 - maktabning 5 - «A» sinf o'quvchisi.*

«Cho'pchagim, cho'pchak,  
Oltin belanchak.  
Yetti qizning onasi,  
Halogacha kelinchak».



Qush emas, qanoti bor,  
Chiroyli savlati bor.  
Uchsa lochin yetolmas,  
Tolmas, zo'r quvvati bor.



Sochlarim tolim-tolim,  
Topaqol do'stim Olim.  
Minoraman uzunchoq,  
Tishlarim sadaf, munchoq.

## TOPISHMOQLAR

Shoxdan shoxga sakraydi,  
Odamlarga o'xshaydi.  
Qorni to'ysa, shod mamnun,  
Nomidir uning ...



Osmonda to'p-to'p bo'lib,  
Quvnoq o'yin boshlaydi.  
So'ng nimadandir ranjib,  
Ko'zlarini yoshlaydi.

*Umida AHMAD XO'JAYEVA,*  
*Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek*  
*tumanidagi*  
*18 - maktabning 7 - «D» sinf*  
*o'quvchisi tayyorlagan.*

*Malohat DO'SATOVA,*  
*Qashqadaryo viloyati, Qarshi*  
*tumanidagi 18 - o'rta maktabning*  
*6 - sinf o'quvchisi.*



## IKKI OG'A-INI BOTIRLAR

Qadim o'tgan zamonda,  
Dashtobod degan  
tomonda, so'lim  
qishloqlardan birida  
alp qomatli ikki og'a-  
ini yashagan ekanlar.  
Ular baxt va omad  
qushini izlab, olis  
o'lkalarga safar qilishga  
ahd qilishibdi. Yo'l  
yursalar ham mo'l  
yurib, cho'lu biyobonda  
katta bir

karvonga duch kelishibdi.  
Karvondagi odamlarning  
suvlari tugab, och-nahor,  
tinka-madorlari qurib  
kelayotgan ekanlar. Shu  
payt sahroning qoq o'rtasida  
bir hashamatli saroyini ko'rib,  
xursand bo'lib ketishibdi.  
Saroydagilardan suv, biror  
yegulik so'rash ilinjida  
oshiqishibdi. Saroyda  
bahaybat ikki dev yasharkan.  
Ular odamlarga juda ko'p  
ovqatlar, meva-chevalar  
ulashishibdi. «Mana suv,  
to'yguningizcha ichavering»  
deyishibdi. Ularning bu  
saxiyligidan shubhalangan

aka-ukalar yemishlarni  
tekshirib ko'rishga ahd  
qilishibdi. Jon holatda  
suvga talpingan odamlarni  
to'xtatib, avval bir tuyaga  
ichirib ko'rishibdi. Tuya  
til tortmay o'lib qolibdi.  
Bu holni ko'rgan odamlar  
aka-ukaga minnatdorchilik  
bildirishibdi. Siri fosh bo'lgan  
devlar esa vajohat bilan  
odamlarga tashlanishibdi.  
Aka-ukalar ular bilan uzoq  
olishib, oxir oqibat yengib  
chiqishibdi. Karvonboshi  
ancha keksayib qolgani  
bois, karvonni kimga  
topshirsam ekan, deb  
o'ylanib yurgan ekan. O'ziga

munosib o'rinbosar  
topilganidan xursand  
bo'lib ketibdi. Akaga  
karvon boshilikni  
topshiribdi. Ukasiga esa  
katta to'yu tantanalar bilan  
ko'zining oqu-qarosi,  
yolg'izgina qizini beribdi...  
Qissadan hissa shuki,  
kimki odamlarga yaxshilik  
qilishni, ezgu ishlarni odat  
qilsa, u albatta murodu  
maqsadiga yetadi.

*Nurbek UNGAROV,*  
*Toshkent viloyati,*  
*Zangiota tumanidagi*  
*12 - maktabning*  
*7 - sinf o'quvchisi.*

O'zbekiston bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON  
MATBUOT VA AXBOROT  
AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR IJTIMOY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:  
Umida ABDUAZIMOVA  
TAHRIR HAY'ATI:  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

«Sharq» nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 46.291  
nuxsada ofset usulida bosildi.  
Korxonalar manzili: «Buyuk  
Turon» ko'chasi, 41.  
Buyurtma № T-861  
Gazetani  
Ma'suda IRISNAZAROVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Ozoda TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi  
№ 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08

## Tengdoshlaring ijodi

Kunlardan bir kun o'quvchim  
Oydinning otasi - Solijon Mamasoliyev  
qo'yarda-qo'y may uyiga taklif etdi.

Aziz tahririyat xodimlari, Oydinning  
she'rlari bilan tanishib, lozim topsangiz uni

Qo'linga bir  
d a s t a **MUALLIM YO'LLAGAN OQ YO'L**  
daftarlarni

tutqazib, ichidagi she'rlarni o'qib  
ko'rishimni iltimos qildi. Unda Oydinning

dil satrlari jo bo'lgandi. Serma'no, go'zal  
she'rlarni o'qidimu «Tong yulduzi»ga  
jo'natish lozim deb o'yladim.

c h o p  
e t a r s i z .  
Y o s h

niholga ma'rifat bog'boni misol mehringizni  
darig' tutmagaysiz, degan umiddaman.

Sotvoldi QAYUMOV,  
Andijon viloyati, Baliqchi  
tumani, Olimbek qishlog'i.

## KULCHA NON

Onajonimiz bizga,  
Yopib berar kulcha non.  
Uni yegan bolaga,  
Kuch-quvvat to'lar shu on.

## OLTIN KUZ

Kuz keldi yurtimizga,  
Qovun-tarvuz, nok pishdi.  
Boli mo'ldir, yegandim,  
Labim chip-chip yopishdi.

## TOPISHMOQLAR

Suvga rosa qonadi,  
Oltin kabi yonadi.  
Pishar yerning ostida,  
Palovning ham do'sti-da.


Maktabimiz ko'rkidir,  
Chorlaydi darsga, damga.  
O'quvchilardak u ham,  
Yozda chiqadi damga.




Oydin MAMASOLIEVA,  
Andijon viloyati, Baliqchi tumanidagi 6- o'rta  
maktabning 6- «D» sinf o'quvchisi.

Eng katta  
raketa

Raketalarining ichida eng  
kattasi deb «Saturn-5» kosmik  
havo kemasi tan olindi. Uning  
og'irligi 2,903 tonna keladi.


Qaldirg'och qancha  
uchadi?

Bir juft qaldirg'ochlar kuniga 16  
soat uchadi. U o'z bolasiga 20  
marta ovqat olib keladi. O'zi esa  
600 ta zararli hasharotni iste'mol  
qiladi.

Yer yuzidagi ajoyib  
dengiz

Yer yuzida shunday bir  
dengiz bor ekanki, unda  
cho'milish tugul, bemaolol  
ustida yotib kitob mutolaa  
qilish ham mumkin ekan. Uning nomi  
O'lik dengiz deb atalarkan.

## Suvsizlikka chidamli hayvon



Uzoq vaqt suvsizlikka  
chidaydigan jonzotning  
nomi nima, deb so'rasha,  
tuya deb javob  
berishingiz aniq.  
Chunki ular 2-3  
hafta suvsiz  
yashay olishadi. Lekin  
suvsizlikka tuyalardan ham  
chidamliroq hayvonlar bor ekan. Ular  
olmaxonlar. Olmaxonlar 3-4 oylab bemaolol  
suvsiz yashay olar ekanlar.



Go'zal  
QOSIMJONOVA.